

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI

KURS ISHI

**MAVZU: O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH TIZIMINING YOSHLARNI
KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDAGI O'RNI VA
AHAMIYATI**

Bajardi: 3 “B” guruh talabasi Xalilov Sanjar
Qabul qildi: kat.o'qit. U.Narzullayev

Navoiy-2015

**MAVZU: O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH TIZIMINING YOSHLARNI
KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDAGI O'RNI VA
AHAMIYATI**

REJA:

**1. MAHALLA - FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH
SOHASINING NOYOB MEXANIZM**

**2. O'Z-O'ZININI BOSHQARISH TIZIMINING YOSHLARNI KOMIL
INSON QILIB TARBIYALASHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

**3. FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI
FAOLIYATIGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

"Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari" tamoyilining mohiyati davlat o'zining bir qator vakolatlarini bosqichma-bosqich mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralariga topshirishni anglatadi. Ya'ni, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish nazarda tutiladi. Bu tamoyil asosida yashash, birinchidan, fuqarolardagi loqaydlik, beparvolik kabi illatlardan xalos bo'lib borishiga yordam beradi. Fuqarolik jamiyatida o'zini o'zi boshqarish, o'z manfaatlarini himoya qilish tamoyillari etakchilik qiladi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyatida fuqarolar nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar orqali o'z irodalarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir"¹.

Fuqarolik jamiyatini, bir so'z bilan aytganda, huquq va burch o'zaro uyg'un jamiyat deyish mumkin. Huquq bu bizga berilgan katta imkoniyat, undan har daqiqada oqilona foydalanishimiz lozim. Burch esa insonning o'z hayotiga, zimmasidagi vazifa va majburiyatlariga vijdonan yondashuvidir. Agar jamiyatda har bir fuqaro o'z vazifasiga vijdonan yondashsa, berilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalansa, mamlakat taraqqiyotiga ham, o'z kamolotiga ham hissa qo'shgan bo'ladi².

Fuqarolik jamiyatini qurish, albatta, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. 1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z o'zini boshqarish organlari haqida"gi (yangi tahrirda) qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi. Yangi tahrirdagi qonunning 7 - moddasiga asosan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi deb to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yildi. Bu qonunda mahalla

¹ Karimov. I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston", 1998, 32-bet

² Mamatov X. "Fuqarolik jamiyatining muhim shartlari", // "Fuqarolik jamiyati", №1, 2007, 28-bet

bajarishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Mahallaga yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari, yangi vazifalar yuklatilgan. U o'z hududida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni nazorat qilishga ko'maklashadi, yong'in xavfsizligi, turar joy fondini saklash, aholidan soliq va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'shishini ta'minlashga yordam beradi. Ana shu pul mablag'lari tushumining muayyan miqdori o'z-o'zini boshqarish organlari jamg'armasiga o'tkaziladi. Bu mablag' kam ta'minlangan oilalarning uy-joy, kommunal xizmatlari to'lovlariga, shuningdek, mahallani obodonlashtirishga sarflanadi. Endilikda, har bir mahalla o'z madaniy markazini, guzarini qurib, shu yerda choyxona, novvoyxona, do'kon, maishiy xizmat shoxobchalari, turli sport o'yinlari maskanini barpo etmoqda. Mahalla qo'mitasi tashabbuskor jamoat tashkilotidir. Mahallada xo'jalik madaniy qurilish tadbirlarini amalga oshirish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar xo'jaligini saqlash, ozodalikni ta'min etish, tartibqoidani mustahkamlash va h.k. uchun sharoit mavjud.

Mahallalarning ahamiyati mustaqillik sharoitida kun sayin o'sib bormoqda. Ular mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'min etishda, omma kuch-g'ayratini bunyodkorlikka yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 2003 yil O'zbekistonda "Obod mahalla yili" deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003 yil 7 fevralda qabul qilgan "Obod mahalla yili" dasturiga binoan, mahalla nufuzini ko'tarishga qaratilgan muhim vazifalar amalga oshirildi.

Bugungi kunda mahallalar Vatan ichra kichik bir Vatan sifatida jamiyatimizning rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda yashab kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mahallalar mustaqil, huquqiy, demokratik davlatning asosiy tayanchi bo'lib qoldi.

Shu boisdan, O'zbekistonda jamiyat qurilishi tizimini mustahkam poydevorini yaratishda mahallaning o'rni katta ekanligini va o'zini o'zi boshqaruv organlarining boshqaruv tuzilmasini bugungi kun talablari ruxida o'rganib uning nazariy hamda amaliy ahamiyatini yoritish **muhim ilmiy ahamiyatga** egadir.

1. O'ZBEKISTONDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOS SHAKLI.

Mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda o'zini - o'zi boshqarish organlarining etakchi, xalqqa eng yaqin muhim bo'g'ini - mahalla tizimini tiklashga, nufuzini oshirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Mahalla to'g'risida fikr yuritganda, albatta, o'zini - o'zi boshqarish organlari - mahallalarning va ularning mansabdor shaxslarining jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'ulligi demokratik xarakterga ega ekanligini hamisha yodda tutish kerak.

Mahalla tizimi demokratik institut ekanligi bu tizimda jamiyatni boshqarish demokratlashib borishi unda keng xalq ommasi davlatni, jamiyatni boshqarishda erkin, xolis, beg'araz, ixtiyoriy ishtirok etishi ta'minlanishi, u O'zbekistonning o'ziga xos betakror, noyob xalqchil boshqaruv instituti ekanligi e'tirof etildi va hozirgi kunda jahon davlatchiligi tajribasida tan olinmoqda. Shuningdek, jamoatchi faollar bozor munosabatlarini rivojlangirish xamda huquqiy demokratik jamiyat barpo etish bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p tadbirlarni yuzaga chiqarish ustida ishlashi zarur. Shu yo'ldagi rejalarni, "XXI asr mahallasi" konsepsiyasida ko'zda tutilgan keng qamrovli vazifalarni hayotga tadbiiq etish uchun dasturlar ishlab chiqilayotgan, ustuvor yo'nalishlar aniqlab olinayotgan hozirgi paytda oqsoqollarga ko'p narsa bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozim. Ular xalqchil, o'zini - o'zi boshqaradigan jamoat organi sifatida mahalliy davlat hokimiyati idoralari bajarayotgan kuppina vazifalarni adolatli ravishda uddalashga qodir ekanligini amalda isbot etdi. Ularning, ayniqsa aholining ma'lum tabaqalariga aniq yo'naltirilgan zarur ijtimoiy yordam berishdagi o'rni beqiyosdir.

Toshkentda "Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va mas'uliyatini kuchaytirish" mavzuida xalqaro davra suhbati bo'lib o'tdi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini o'rganish doirasida o'tkazildi. Xalqaro davra suhbati respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi, Fuqarolik jamiyatini

o'rganish instituti va "Sukuba" universiteti (Yaponiya) tomonidan tashkil etildi. Tadbirda Hindiston, Xitoy, Norvegiya, Sloveniya, AQSh, Janubiy Koreya va Yaponiyadan olimlar, ekspertlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, fuqarolar yig'inlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirok etdi.

Forum qatnashchilari O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan so'ng davlat va jamiyat qurilishi sohasida tub islohotlar bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirib kelinayotganini, ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish ekanini ta'kidladilar. Davra suhbat qatnashchilarining umumiy fikriga ko'ra, Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Konsepsiya – bu davlat va jamiyatni rivojlantirishning prinsipial yangi bosqichida mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish strategiyasi bo'lib, O'zbekistonning zamonaviy rivojlangan, demokratik davlatlar qatoriga qo'shilishi, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallashi va xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratilgan.

Ekspertlarning fikricha, fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahallani shakllantirish hamda rivojlantirish borasida O'zbekistonning "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini bosqichma-bosqich izchil amalga oshirishga asoslangan tajribasi katta qiziqish uyg'otmoqda va undan demokratiya yo'lidan borayotgan boshqa davlatlar ham samarali foydalanishi mumkin. Mahalla O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning muhim asoslaridan hisoblanishi, o'z faoliyati orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim vazifalarini hal etishda bevosita ishtirok etish kabi konstitusiyaviy huquqlarini ta'minlayotgani ta'kidlandi. "O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qisqa vaqt ichida mintaqadagi yetakchi davlatga aylandi, – dedi J.Neru nomidagi universitet professori Kulbxushan Variko (Hindiston). – Prezidentingiz Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan va rivojlanishning "o'zbek modeli" deb nom olgan islohotlarning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mamlakat suvereniteti va barqarorligini

mustahkamlash, demokratiyani rivojlantirish, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashida muhim omil bo‘ldi. Ushbu siyosat boshqa davlatlardagi “shok terapiyasi” choralaridan tubdan farq qiladi va O‘zbekiston mustaqilligining 20 yilligi arafasida shuni ishonch bilan aytish mumkinki, “o‘zbek modeli” samaradorligini vaqtning o‘zi ko‘rsatib berdi. Bu yerdagi noyob mahalla instituti dunyodagi ko‘plab mamlakatlar uchun namuna bo‘la oladi. O‘zbekistonda mahalla faoliyatining huquqiy asoslari shakllangan va yanada mustahkamlanmoqda. Mahalla maqomi O‘zbekiston Konstitusiyasida mustahkamlangan bo‘lib, uning vazifalari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi milliy qonunchilikda aniq belgilangan. Davlatingiz rahbari institusional rivojlanishning yangi – mahalla vazifalarini amalga oshirish orqali milliy va oilaviy qadriyatlarni qayta tiklash tizimini yaratdi. O‘zbekiston Prezidenti “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida o‘z konsepsiyasida jamiyat hayotida mahalla rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan qator yangi va muhim tashabbuslarni ilgari surdi”.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanayotgani, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratayotgani, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga ko‘maklashayotgani ta‘kidlangan. Shu munosabat bilan forum qatnashchilari o‘z chiqishlarida fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rivojlangan tizimi ekanini qayd etdilar.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotining ajralmas qismi, kuchli bunyodkorlik salohiyatiga ega jamoatchilikning o‘zini o‘zi boshqarishning muhim birlamchi bo‘g‘ini sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda rivojlantirishga doir tizimli va izchil chora-tadbirlar amalga

oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular ilgari mahalliy hokimiyat organlarining alohida huquqlari hisoblangan 30 dan ortiq vazifani bajarmoqda, chunonchi aholini ijtimoiy muhofaza qilish, fuqarolar manfaatlarini himoyalash kabi ko'plab masalalarni samarali hal etmoqda.

Mahalla instituti orqali aholini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy muhofaza qilish tizimi amalga joriy etildi. Davra suhbatlari ishtirokchilari ushbu tizim asosini o'zbek xalqiga xos ezgulik, mehr-oqibat, bir-biriga yordam berish kabi ko'p asrlik an'analar tashkil etishiga alohida e'tibor qaratdilar. Xorijlik ekspertlar bunday tizimning yaratilishi dunyoda o'xshashi yo'q noyob tajriba hisoblanishini ta'kidladilar. "Sukuba" universiteti prorektori Sujinaka Yutaka (Yaponiya) shunday dedi: "Biz Sharq va G'arbdagi 13 mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini o'rganib chiqdik. Tadqiqot natijalari o'zbek mahallasi – bu boshqa mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish modelidan tubdan farq qiladigan o'ziga xos noyob milliy demokratik institut ekanini yana bir bor tasdiqladi. Mahallaning o'ziga xos ahamiyati shundaki, uning faoliyatida barcha fuqarolar, jumladan, yoshlar va xotin-qizlar ham faol ishtirok etadi. Mahalla jamiyatni demokratlashtirish, tinchlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi, unga o'z hududini boshqarish, aholini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy muhofaza qilish, odamlar hayoti bilan bog'liq ko'plab ijtimoiy, gumanitar masalalarni hal etish uchun katta vakolatlar berilgan. Mahalla – bu juda mustahkam va barqaror tuzilma. Mamlakatingizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish davomida davlat o'z vazifalarini bosqichma-bosqich qisqartirib, ularni mahallalarga bermoqda va mahalla, o'z navbatida, bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olmoqda. Mahalla tajribasini dunyoda keng qo'llash maqsadga muvofiq bo'lur edi".

"Turli mamlakatlarda davlat va jamiyat turlicha shakllangan, muayyan tajriba va an'analar to'plangan, – dedi Norvegiya mahalliy va mintaqaviy hokimiyatlar assotsiatsiyasining xalqaro loyihalar bo'yicha direktori Elita Sakule. – Jumladan, Norvegiyada jamiyat va davlatni rivojlantirishga doir muhim vazifalarni hal

etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va hukumat o'rtasida ijtimoiy sheriklik modeli rivojlangan. Ayni paytda, Norvegiyada, jumladan, kichik biznes va ijtimoiy yordam ko'rsatish masalasida ijro hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati tashkilotlarining o'zaro hamkorligi konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu borada davlatingiz rahbarining mahalla rolini oshirish, jumladan, uni kichik biznesni rivojlantirish markaziga aylantirishga qaratilgan yangi qonunchilik tashabbuslari katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu kelgusida zamonaviy fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini shakllantirish, aholining bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Fuqarolarning muhim vazifalarini samarali hal etish, buning uchun mahalliy hamjamiyat sa'y-harakatlarini safarbar qilish bo'yicha O'zbekiston tajribasini o'rganish, menimcha, Norvegiya uchun ham foydali bo'ladi".

Davra suhbatida mahalla jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, sog'lom turmush tarzi falsafasining qaror topishi, barkamol avlodni tarbiyalash, joylarda ta'lim, aholi bandligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta'minlashga katta hissa qo'shayotgani ta'kidlandi. Bunga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda mahallaning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi mustahkamlanmoqda.

Kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekistonda kichik va oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, buning hisobidan fuqarolar farovonligi hamda turmush darajasini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugun ushbu sohada ish bilan band jami aholining 74 foizdan ortig'i mehnat qilmoqda. Davra suhbatida ishtirokchilari o'z chiqishlarida O'zbekistonda o'rta mulkdorlar sinfi kichik korxonalar tashkil etilayotgan, ijtimoiy infratuzilma rivojlanib, kasanachilik keng qo'llanilayotgan mahallalarda shakllanayotganini qayd etdi. Fuqarolar yig'inlarida fuqarolarni ishga joylashtirish va yangi ixtisosga o'rgatishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalla tobora oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik markaziga aylanmoqda.

Texas universitetining tarix kafedrası professori Jeyms Vonning (AQSh) ta'kidlashicha, dunyoda hanuzgacha fuqarolik jamiyati xususida yaxlit tushuncha yo'q. Yevropa va Amerikada dastlab kuchli fuqarolik institutlari shakllangan bo'lsa, Sharqning aksariyat mamlakatlarida avval kuchli davlat institutlari tashkil etilib, keyinchalik ular fuqarolik tuzilmalarini shakllantirib, qo'llab-quvvatladi. Amerikalik ekspertning fikriga ko'ra, kelajakda iqtisodiy rivojlanish va jamiyat turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan globallashuv jarayonlarini chuqurlashtirishda butun dunyoda milliy mushtaraklikka, davlat suverenitetiga rahna soluvchi tahdidlar paydo bo'ladi. J.Von bunday sharoitda o'zining samaradorligini namoyon qilgan mahalla instituti milliy an'ana va madaniyatni asrab-avaylash, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin, deb hisoblaydi. "Fuqarolarning bunday o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish G'arb davlatlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Biz ularning faoliyatini o'rganishimiz va O'zbekiston tajribasini qo'llashimiz lozim", – deb ta'kidladi ekspert.

Davra suhbatida O'zbekistonda mahalla haqiqiy demokratiya va aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish maktabiga aylangani qayd etildi. Ochiq va oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni mustaqil hal etish, bir-biriga o'zaro yordam berish mamlakatimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari hisoblanadi. Mahallalar barcha darajadagi hokimiyat vakillik organlariga saylovlarda faol ishtirok etmoqda va saylov asosida o'zlari ham shakllanmoqda. Ikki yarim yilda bir marta fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi o'tkazilmoqda. Chunonchi, joriy yilgi saylovlarda 100 ming nafardan ortiq kishini saylash rejalashtirilmoqda. Xorijlik ekspertlarning ta'kidlashicha, dunyoda bu kabi keng ko'lamlı demokratik saylovlarga misol topish qiyin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatni rivojlantirish, o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishga qo'shayotgan salmoqli hissasi hisobga olingan holda, ular faoliyatining qonuniy asoslarini yanada

takomillashtirish, mahalla vazifalarini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan yaqin hamkorligini ta'minlash, ular o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xorijlik ekspertlar Prezident Islom Karimovning ushbu sohaga taalluqli yangi qonunchilik tashabbuslari o'z vaqtida qabul qilingan va muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladilar.

Masalan, "Mintaqaviy muloqot" nodavlat tashkiloti eksperti Katya Gershag (Sloveniya) shunday dedi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari amalga oshirayotgan jamoatchilik nazorati jamiyatning davlat bilan samarali aloqasini ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yig'inlari orqali jamiyat ishini boshqarishda ishtirok etayotgani jamoatchilik nazoratining eng samarali shakllaridandir. Uning yordamida fuqarolarning mahalliy hamjamiyat ishlarini ushbu hudud aholisi manfaatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil yuritish huquqi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonning mahalla nazorat vakolatlarini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha tajribasini o'rganish boshqa mamlakatlar olimlari va amaliyotchilarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Davlatingiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan Konsepsiyani amalga oshirish davomida Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va hokimiyat organlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikning ayrim ijobiy jihatlaridan foydalanish mumkin. Bu sheriklik samarali ijtimoiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish hamda o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarishda barcha tomonlar sa'y-harakatlarini birlashtirish, o'zini o'zi boshqarish organlariga kichik tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi, tegishli hududdagi kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan sifatli xizmat ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish huquqini berishga asoslangan".

"Mahalla – o'zbek xalqining ulkan boyligi bo'lib, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda, – dedi Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoni o'rganish instituti yetakchi mutaxassisi Chjao Xueyjun. – Ushbu o'zini

o'zi boshqarish organlari faoliyati samarasida jamiyat mustahkamlanmoqda, demokratiya rivojlanmoqda. Ular, haqiqatdan ham, odamlarga yaxshi yashash, biznes, shu jumladan, oilaviy biznes bilan shug'ullanishga ko'maklashmoqda. Boshqa mamlakatlar uchun mahalla faoliyati katta va muhim tajriba hisoblanadi. Prezidentingiz Islom Karimovning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati g'oyat samaralidir. Men davlatingiz rahbarining bu boradagi yangi qonunchilik tashabbuslarini to'la qo'llab-quvvatlayman".

Davra suhbatlari qatnashchilari mahalla institutini rivojlantirishga qaratilgan yangi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda qaysi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozimligi haqida ham fikr almashdi. Birinchi navbatda – bu, ijtimoiy-iqtisodiy sohada samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlash, aholi keng qatlamlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda mahalla rolini oshirishga qaratilishi lozim. Xususiy mulkni samarali himoya qilishni ta'minlash, fermerlik harakatini mustahkamlash, kichik, oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda mahallaning joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan yaqin o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Muxtasar aytganda, xalqaro davra suhbatlari ishtirokchilari xalqning ko'p asrlik an'analarini va istiqbol yillarida demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yicha O'zbekistonda to'plangan katta tajribani puxta o'rganish zarur, degan xulosaga keldilar. Ular mamlakatimizning bu borada erishgan yutuqlari, belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish barqaror demokratik rivojlanishga intilayotgan dunyoning ko'plab davlatlari uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkinligini alohida qayd etdilar.

Mahalla - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish sohasining noyob mexanizm sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Mahalla - ildizlari xalq an'analariga va tarixan tarkib topgan jamoa munosabatlariga borib taqaluvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish sohasining

noyob mexanizmi³. Mahallayangi boshqaruv tizimi" xalqimiztabiatiga, xalqimiz talabiga mos keladigan, yurtimizda tinchlik va totuvlikni saqlash garovi. Jamiyatni boshqarish tizimida mahalla institutining o'rni;

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar-ning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"-gi Qonunining birinchi tahriri (1993 y. 2 sen-tyabr). 1997 y. 25 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. Mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishning maqsadga muvofiqligi;

"Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida ishtirok etish huquqi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etilishi;

Kommunal xizmat ko'rsatishning qo'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash shaklining bozor prinsiplariga o'tishi, uning yuklamasini asta-sekin aholi hisobiga ko'paytirgan holda kam ta'minlangan oilalar uchun uy-joy kommunal xizmatlar qiymatining oshishini ko'rsatib o'tilgan toifaga fuqarolarning mahalla, qishloq,

³ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. 1995 й.

shaharcha va ovul yig'inlari orqalimoddiy yordam berish yo'li bilan qisman qoplashni hisobga olgan holda amalga oshirish. Oila va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, yoshlar tarbiyasida oilaning mas'uliyatini oshirish, huquqiy tarbiyani kuchaytirish maqsadida mahallalarda "Oila-maktab-mahalla" jamoatchilik kengashlarini tuzish. Barcha umumta'lim muassasalarida "Oila-mahalla-maktab" hamkorlik markazlarini tashkil etish. "Oila mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish⁴. O'zini o'zi boshqarish organlari hamda xotin-qizlar qo'mitalari, ommaviy axborot vositalari tomonidan aholi, eng avvalo, yoshlar o'rta-sida sog'lom oilani shakllantirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish muammolari, "Sog'lom ona - sog'lom bola" maqsadli vazifa-sini amalga oshirish bo'yicha olib boriladi-gan keng targ'ibot va tushuntirish ishlarini tashkil etishda;

Mahalla - yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni saqlashda tayanch va suyanchimizdir⁵. Mahalla qo'mitalarining aholi yashash joy-larida sodir etilayotgan jinoyatlar va boshqa g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni keltirib chiqarayotgan sabab va holatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarini ko'llab-quvvatlashning muhim ahamiyati. Huquqiy tarbiyaning umumiyliigi va huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi prinsipini ro'yobga chiqarishda fuqarolaryushg o'zini o'zi bosh-qarish organlari, ularshshg aholi huquqiy madaniyatini shakllantirish va huquqiy ongini oshirishga bevositahamda muttasil ta'sir ko'rsatishi. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida mahallalarda fuqarolar bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, advokatlar va huquqshunos olimlar uchrashuvlarini tashkil qilishda.

⁴ Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish b'uyicha chora-tadbirlar Mажмуаси. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 й. 19 июндаги Қарорига илова

⁵ Каримов И.А. Пойтахтимиз - муқаддас остонамиз. Тошкент шаҳар сайловчилари вакиллари билан учрашувда сўзланган нутқ. 2000 й. 6 январь

2. O'Z-O'ZININI BOSHQARISH TIZIMINING YOSHLARNI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Biz qurayotgan demokratik jamiyatda mahalla – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish milliy modeli bevosita demokratiya instituti sifatida tan olindi. Mahalla, o'zini o'zi boshqaruvi amaliyoti hamda fuqarolik jamiyatini qurish tamoyoilardan kelib chiqib, davlat hokimiyati vazifalari fuqarolarning o'zi-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib kelinmoqda.

Endilikda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bevosita davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etmoqda.

Sharqda demokratik jarayonning qadimdan shakllangan tajribasi, urf-odatlar, qadriyatlar va hayotiy yangilanishlarning o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos an'analari mavjud. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjamiyat g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zamirida shakllanadi. “Bizning mamlakatimizda demokratik jarayonlarni xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlantirish zarur”, - deb ko'rsatadi Islom Karimov.

Jamiyatning boshqaruv tizimini shakllantirishda bu tamoyilga alohida e'tibor berilmoqda. Buni mahallalar ishi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda mahallalar rolini oshirish uchun katta ishlar qilinmoqda.

Ma'lumki, mahallalarda siyosiy, iqtisodiy masalalar bo'yicha jamoatchilik fikri shakllanadi va turmush tarzi rivojlanadi. Shu bois davlatimiz tomonidan mahallalarga, fuqarolar yig'inlariga alohida e'tibor berilganligi xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim voqeadir. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov: “Hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat

qilishi lozim”⁶, - deb ta’kidladi Oliy Majlisning 1995 yil fevralida bo’lib o’tgan birinchi sessiyasida so’zlagan nutqida.

Mahalla xalqchil Sharqona demokratiya darsxonasidir. Mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an’analariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajarib keladi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g’oyalari singdirib boriladi.

Mahalla - avvalo, sog’lom ijtimoiy muhit maskani. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo’lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o’zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma’noda mahallaning demokratiya darsxonasi, deb atalishi juda hayotiydir⁷.

Mahallada keng jamoatchilik o’rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo’lga qo’yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy - qadriyatlar, mehr-oqibat el-yurt sha’ni kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o’rni beqiyos.

Mahalla hayotimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan istiqloq mafkurasini zamon talablari asosida yanada to’ldirishda quyidagi milliy xususiyatlarni ko’zda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo’lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo’lgan oila, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e’tibor;
- millatning o’lmas ruhi bo’lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga hurmat, kichikka izzat, shafqat;
- mehr-muhabbat, go’zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi — ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh, toqatlilik va mehnatsevarlik;
- halollik, mardlik, adolatlilik, chin insoniylik, odamiylik fazilatlari va boshqa umumbashariy qadriyatlar.

⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. 1995 й

⁷ Ватан туйғуси, Тошкент: Маънавият, 1998. 144-бет.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda, barcha jabhalarda bo'lganidek, boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni «kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» ijtimoiy-siyosiy g'oyasini amalga oshirish borasida ham talay ishlar qilindi. Ayniqsa, mahallalar faoliyati butunlay yangicha mazmun kasb etdi.

Ma'lumki, jahon tajribasida mahalla deb ataluvchi yagona, betakror boshqaruv instituti ilk bor bizning yurtimizda paydo bo'lgan, Istiqlolning ilk yillaridan boshlaboq, Yurtboshimiz o'z ma'ruza va nutqlarida, jamoatchilik bilan uchrashuvlarida jamoa bo'lib yashash o'zbek xalqining tabiatiga xos ekanini, bu ajoyib qadriyat ajdodlardan o'tib kelayotgan noyob meros ekanligini ta'kidlab, uning kuch-qudratiga yuksak baho berib keladilar.

“Zero, barchamiz mahallada yashaymiz. Uning nufuzini ko'tarish nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki - siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir”⁸, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Mahallaning mavqeini ko'tarish bilan, birinchidan, xalqimizning azaliy an'alarini, qadriyatlarini qaytadan tiklash va rivojlantirish mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, davlat (viloyat, tuman, shahar hokimlari) vazifalarini asta-sekin o'zini o'zi boshqarish idoralariga - mahallalarga o'tkazish bilan jamiyatni demokratiyalashda yangi va juda katta imkoniyatlar yaratildi. Buni Prezidentimiz o'z asarlarida, ma'ruzalarida asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonun va qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar mahallani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, uning idora usulini shakllantirish, huquqlarini kengaytirish va mamlakat boshqaruv tizimidagi ishtirokini kuchaytirishga qaratildi.

Mahallaga e'tibor mustaqillik bilan barobar o'sib bordi. 1992 yil 12 sentyabrda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov “Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”⁹ farmonga imzo chekdi. Farmondan ko'zda tutilgan maqsad tarixan tarkib topgan milliy va an'anaviy

⁸ Каримов ИА Одамларнинг ташвиш ва орзу-интилишлари билан яшаш фаолиятимиз мезонига айлансин. 2002 й. биринчи ярим йиллигида Ўзбекистон иқтисодий ва маънавий ривожлантириш юзасидан устувор вазифалар ва топшириқларнинг бажарилиши ҳамда долзарб муаммоларнинг ҳал этилиши тўғрисидаги маъруза. 2002 й. 18 июль

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 й. 12 сентябрь "Республика "Маҳалла" Хайрия жамғармасига маблағ ажратиш тўғрисида"ги Фармони

qadriyatlarini e'zozlash, izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini ommalashtirish, mahallalar o'rtasida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, shuningdek, ularni ijtimoiy va iktisodiy jihatdan yanada mustahkamlash choralarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash edi.

Prezidentimiz: "Mahallaning har qanday masalani yechishga qurbi yetadi, nega deganda, eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Hech bir korxonaga, hech bir idora yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi. U yerda hayot tajribasi katta, zaminga yaqin, ko'pni ko'rgan, barcha ishni joy-joyiga qo'yadigan fidoiy odamlar yashaydi va ishlaydi"¹⁰, - deb qayd etganlar. Mahallaning hayotimizdagi yuksak nufuzi asoslab berilganligi uning mavqeini yanada oshirib yubordi.

Aholini ijtimoiy himoyalashga oid muayyan tadbirlarni ro'yobga chiqarishda kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan yordam berishni, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining keng va faol ishtirokini kuchaytirish maqsadida Prezidentimiz 1994 yil 23 avgustda "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida» farmon chiqardi. Farmonda: "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam qo'rg'on, qishloq, ovul, shaharlardagi mahallalar fuqarolarining yig'ini... qaroriga ko'ra tayinlanadi"¹¹, — deb ko'rsatilgan. Demak, ijtimoiy himoya maqsadlariga ajratilgan mablag'larni adolatli taqsimlash mahallaning o'ziga topshirildi. Bu - katta ishonch, qolaversa, mahallalarning huquqi va obro'sini oshiradigan mas'ul vazifa edi. Ushbu farmon bilan izma-iz Vazirlar Mahkamasi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida" qaror qabul qildi. Bu tadbirni bekamu ko'st, maqsadli o'tkazish yo'llari alohida nizomda belgilab qo'yildi. Nizomda moddiy yordam ko'rsatish chog'ida ijtimoiy adolatga qat'iy rioya qilish, haqiqatan muhtoj oilalarga yordam berilishini ta'minlash asosiy qoida sifatida alohida uqitirib o'tildi.

¹⁰ Аҳмедов А. Маҳалла - фуқаролик жамияти-нинг муҳим асоси // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. - 2013. - №1. - Б.13-17.

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994 й. 23 август "Кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоя-лашни кучайтиришга оид тadbirlar тўғрисида"ги Фармони // Xalq so'zi 1994 y 24 avgust.

Bularning hammasini istiqlolimizning sharofati, uning ijodkori — Yurtboshimizning mahalliy o'zini o'zi boshqarishni milliy omillar asosida tashkil etish borasidagi kashfiyoti, desa bo'ladi. Ayni chog'da, zamon bilan hamnafas yangilanib borayotgan milliy tafakkurni shakllantirish, an'analarimizni zamon ruhiga mos ravishda boyitish, tiklash, o'zligimizni dunyo hamjamiyati ko'z oldida namoyish qilish, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan istiqlol royolari tizimini o'zida mujassamlashtirgan mafkurani shakllantirish borasida bajarilayotgan ishlar ham salmoqlidir.

Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning 2001 yil may oyida bo'lib o'tgan beshinchi sessiyasida o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada kengaytirish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga e'tiborni qaratib: "O'zini o'zi boshqarish organlari - bizning kelajagimiz. Bu organlarning asosini qurishga kirishgan ekanmiz, ular barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatining poydevorini har tomonlama mukammallashtirib borish har birimizning mas'uliyatli va muqaddas bur-chimizdir"¹², - deb ta'kidladi.

Istiqlol yillarida Prezidentimiz Islom Karimovning sa'y-harakatlari, oqilona siyosati bilan jamiyatdagi boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat vazifalarini o'zini o'zi boshqarish organlariga, jamoat tashkilotlariga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tkazish, kuchli huquqiy, demokratik davlatdan adolatli fuqarolik jamiyatiga o'tish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi.

Eng qadimiy milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, o'zbek xalqining yashash tarzini o'zida to'la-to'kis mujassam etgan mahalla jamiyatdagi o'zining munosib o'rniga tiklab qo'yildi. O'zbek mahallasi xalqimizga xos donishmandlik timsoli. U tarixda ham hamisha o'z jozibasi, haqiqiyliги, betakrorligi bilan dunyo ahli tafakkurini o'ziga jalb qilib kelgan. Moziydan tortib, hozirgacha davlatimiz o'zining ko'pgina ezgu amallarini, ijtimoiy, ommaviy tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahallada oqsoqollar,

¹² Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. –Т.: Ўзбекистон, 2001. 235-бет.

faollar akl-zakovati, adolatli nazari bilan amalga oshirib, hal qilib keladi. Bu an'ana hozir ham davom etmoqda. Mahallalarda turli bunyodkorlik ishlari o'z yechimini topmoqda, hasharlar, rang-barang madaniy-ma'naviy, tarbiyaviy umumxalq bayramlari o'tkazilmoqda. Ta'kidlash joizki, mahallalarda amalga oshirilayotgan siyosat asosida jamoatchilik fikri shakllanadi. SHuning uchun ham Yurtboshimiz jamiyatdagi islohotlarni chuqurlashtirishda, demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda mahallaning mustahkam tayanch bo'lishini nazariy hamda amaliy asoslab berdilar. "O'zbekistonda mahalla bo'lib, jamoa bo'lib, yashashning, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov, - necha ming yillik tarixi bor. Biz bu an'analarni yangi mazmun bilan boyitmoqdamiz. Hozirgi davrda mahalla joylardagi o'zini o'zi boshqarish tizimining tayanchi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Bu jamiyatimiz bugungi hayotining eng samarali, ayni paytda milliy va xalqchil ko'rinishidir"¹³.

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi, deb tan olinganligi bilan ham o'zining yuksak mavqeiga ega. Prezidentning mahalla borasida olib borayotgan oqilona siyosati ikkita muhim vazifani hal etishni ko'zda tutadi.

Birinchisi ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni, urf-odatlarni to'la-to'kis tiklashdan va rivojlantirishdan iborat.

Ikkinchisi siyosiy vazifa bo'lib, Prezidentimizning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida, viloyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasidagi qator vakolat va huquqlarni, yuqorida aytganimizdek, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ularning maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tarifa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim bosqichga ko'tarilishdan iborat.

Binobarin, Prezidentimiz mahalla timsolida Sharqona demokratiya shaklini ko'rmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, yangilanish, siyosiy tizimni isloh qilish amalga oshirilayotganidan, demokratik, dunyoviy tuzumga o'tish sharoitida o'zini

¹³ Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.: Ўзбекистон, 2001. 222-бет

o'zi boshqarishning ahamiyati tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi. Bu jarayon tobora rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda mahallalar joylarda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning mustaqil organi sifatida bevosita davlat va jamiyat hayotiga oid bo'lgan masalalarni mustaqil ravishda hal qilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov birinchi chaqiriq Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida: "Biz oldimizga fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini Qo'yganmiz", - deb yana bir bor uqtirdi. Bu aholining iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqelarini oshirishga e'tiborni kuchaytira borish zarur, demakdir. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari", degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ham shunda. U mahallalarga o'z hayotini va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. "Bu esa fuqarolik jamiyati tamoiillariga juda mos keladi".

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning besh yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda 1998 yilning "Oila yili" deb e'lon etilganiga ham o'n yildan oshdi. Aslida "Inson manfaatlarini yili" shiori ostida yakunlangan 1997 yilning 9 dekabrda shu hakda qabul qilingan Farmoyishi va har bir oila muammolariga daxldorligi bilan kechgan 1999 yil - "Ayollar yili", 2000 yil - "Sog'lom avlod yili", 2001 yil - "Onalar va bolalar yili", 2002 yil - "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yil - "Obod mahalla yili", 2004 yil - "Mehr-muruvvat yili", 2005 yil - "Sihat-salomatlik yili", 2006 yil - "Homiylar va shifokorlar yili", 2007 yil - "Ijtimoiy himoya yili" va nihoyat 2008 yil - "Yoshlar yili" dagi qator rasmiy hujjatlar asosida amalga oshirilgan tadbirlar, xususan, Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi"dan tortib to Oliy Majlis Senatining 2007 yil 1 dekabrda ma'qullangan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonungacha - barchasi, aytish mumkinki, o'z mavridida anglab yetilgan ijtimoiy haqiqatning e'tirofi va yorqin ifodasi bo'ldi. Negaki, istiqlol yo'liga qadam qo'yilgan dastlabki kundanoq mamlakatimizda bunga ma'naviy-moddiy zamin yaratib kelinayotgan edi. Taraqqiyotning o'ziga mos va o'ziga xos yulini tanlagan

mamlakatimiz bu sohada ham o'ziga mos va o'ziga xos yo'l tanlay olgan edi. YUrtboshimizning dono siyosati tufayli o'shandayoq ishni sog'lom avlodni tarbiyalashdan boshlamoq zaruriyati kun tartibiga qo'yilgan edi. Shu maqsadda avval jahonning birorta mamlakatida bo'lmagan yuksak mukofot – “Sog'lom avlod uchun” ordenining ta'sis qilinganligi, so'ngra shu nomda maxsus jamg'armaning hamda birin-ketin “Kamolot”, “Mahalla” jamg'armalarining hamda “Oila” ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi, qolaversa, “Maktabgacha tarbiya”, “Tarbiya”, “Boshlang'ich ta'lim”, “Sog'lom avlod uchun”, shuningdek, faqat bolalarga mo'ljallangan “Bilimdon”, “Boychechak”, “Bekinmachoq”, “2x2”, “Znayka” va “Donovord” singari quvnoq jurnallarning chiqa boshlaganligi, nihoyat, 1994 yilning 1 oktyabrida “Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” va 1997 yilning 1 yanvarida “Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida” singari qator tadbirlarning amalga oshirilganligi, farmon va qarorlarning qabul qilinib hayotga tatbiq qilinganligi, qolaversa, “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi to'g'risida”, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlar va “Milliy kadrlar tayyorlash dasturi” ham pirovard-oqibatda oila qadriyatini anglash, uni ijtimoiy muhofaza qilish va mustahkamligini ta'minlash yo'lidagi mislsiz ishlar edi. Sirasini aytganda, 1997 yilning inson manfaatlarini yili tarzida nishonlanganligi oilani muqaddas qadriyat sifatida e'zozlashda, bir pillapoya vazifasini o'tadi.

Zero, sog'lom demokratik jamiyatni yaratishning muhim shartlaridan biri, avvalo, har jihatdan sog'lom, ma'naviyati yuksak, mustaqil fikrlovchi yangi avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Chunki har bir ota-ona o'z farzandlari timsolida ezgu orzu-umidlarining ruyobini, porloq kelajakni tasavvur qiladi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi”¹⁴.

¹⁴ ИСЛОМ Қаримов. Юксак маънавият — енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008, 56-бет.

Oila ijtimoiy hodisa sifatida insoniyatning ulug' kashfiyoti sanaladi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir".

Shu boisdan kishilik jamiyatida oilaning paydo bo'lish tarixini, ijtimoiy mohiyatini, axloqiy-tarbiyaviy rolini va boshqa xususiyatlarini o'rganish g'oyat maroqlidir.

Yuqorida ta'kidlanganlardan tubandagi ikki xulosaga kelish mumkin: Birinchi va eng muhimi - O'zbekistondagi oilani mustahkamlash va uning manfaatlarini himoya qilishga bu qadar izchil yondashilayotganligi hamda davlat ahamiyatiga ega siyosat darajasiga ko'tarilayotganligi aslida uning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-ma'rifiy faoliyatini belgilab bergan qonunlar qomusi - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ifodasini topgan «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» degan 83-moddasiga og'ishmay amal qilinayotganining oqibati hisoblanadi. Qolaversa, bu O'zbekistonda bosh Qonunga satrma-satr rioya qilib siyosat yurgizilayotganining jahon afkor ommasi ko'zi o'ngidagi shahodati hamdir.

Ikkinchisi - oilaning paydo bo'lish tarixi va uning jahon tamadduni (sivilizatsiyasi)ga nechog'li ta'sir ko'rsatilganligini o'rganishga bag'ishlangan yuqorida eslatilgan e'tirofqa arziqli talay jiddiy tadqiqotlar yuzaga kelganiga qaramay, hali bu sohada anchagina ilmiy muammolar qalashib yotganligining dabdurustdan ayonlashib qolganidir. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov: "Oila haqida gapirar ekanmiz, av-valambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor", — deganida ham aslida shu muammolarni ko'zda tutgan edi.

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQRISH ORGANLARI FAOLIYATIGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR¹⁵

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish bo'ladigan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi. Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (fuqarolar vakillari-ning yig'ilishlari) orqali amalga oshiradi. Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bevosita yoki o'zlarining saylanadigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishda teng huquqlarga ega. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkorlik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olishdan iboratdir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari

¹⁵ Mazkur tushunchalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"ga va "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonunlari-nint yangi tahriri asosida tuzildi.

(bundan buyon matnda fuqarolar yig'ini deb yuritiladi) fuqarolarning o'zini o'zi boshqa-rish organlaridir. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organ-lari tizimiga kirmaydi va qonun hujjatlari bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshiradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namu-nadagi muhrga ega bo'ladi va O'zbekiston Res-publikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bel-gilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerak.

Fuqarolar yig'ini. Fuqarolar yig'ini aholi manfaatlarini ifodalaydi va uning nomi-dan tegishli hudud doirasida amal qiladigan qarorlar qabul qiladi. Fuqarolar yig'inida o'n sakkiz yoshga to'lgan va tegishli hududda do-imiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. Fuqaro-lar yig'ini organlari quyidagilardir: fuqa-rolar yig'ini kengashi; fuqarolar yig'ini fa-oliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko-missiyalar; taftish komissiyasi

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organ-lari tomonidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishi. Jamoatchilik nazorati fu-qarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshi-riladi: tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi hola-tini o'rganish; tegishli choralar ko'rilishi uchun davlat organlariga murojaat etish; dav-lat organlari vakolatiga kiruvchi va ijtimoi-iy ahamiyatga molik masalalar bo'yicha so'rov-lar yuborish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshi-rilishi mumkin. Jamoatchilik nazorati om-maviy axborot vositalari, nodavlat notijo-rat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin. Dav-lat organlari fuqarolarning o'zini o'zi bosh-qarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ko'maklashishi va qonun huj-jatlariga muvofiq ularning murojaatlari yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi shart.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari-ning va ular mansabdor shaxslarining muroja-atlari ko'rib chiqilishining shartligi. Fuqa-rolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining murojaatlari davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi shart.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishning asosiy prinsiplari. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish oshkoralik, muqobillik va teng saylov huquqi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolar yigini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsa-tish tegishli hududda doimiy yashovchi fuqaro-larning fikri inobatga olingan holda ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi. Ishchi guruh fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni tayyorlaydi va tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga saylovdan kamida o'n kun oddin takdim etadi. Hujjatlarga fuqaro-lar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nom-zodlarning o'z nomzodi ko'rsatilishiga yozma ro-ziligi ilova kilinadi. Tuman yoki shahar hoki-mi fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqol-lari) lavozimiga taqsim etilgan nomzodlar-ning hujjatlarini ko'rib chiqadi va o'zining ushbu nomzodlar bo'yicha asoslantirilgan xulo-salarini keyinchalik ishchi guruhlariga topshi-rish uchun tegishli komissiyalarga yuboradi. Ishchi guruh tuman yoki shahar hokimining xu-losasini olganidan keyin fuqarolar yitini raisi (oqsoqoli) lavozimiga kelishilgan nom-zodlar haqidagi axborotni saylovdan kamida besh kun oldin fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yadi.

Fuqarolar yigini raisi (oqsoqoli) lavo-zimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi, qoida tariqasida, oliy ma'lu-motga ega bo'lishi, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yasha-yotgan bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat notijorat tashkilotlarda yoxud tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek hayotiy tajribaga va aholi o'rtasi-da obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

XULOSA

Tarixan ming yillar davomida tarkib topgan mahalla yaxshi qo'shniçilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda, ijtimoiy himoya masalalarini hal etishda muhim rol o'ynab kelgan. Xalqona ibora bilan aytganda, mahallada insonlar bir tan, bir jon bo'lib yashaydi. Mahalla ruhi yurtdoshlarimiz hayotiga, qalbiga singib ketgan. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismi ham bugungi kunda mahalla va qishloqlarda istiqomat qiladi. Aholi bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalar, yordamga muhtoj yolg'iz qariyalar, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi ham aynan mahallalarda o'z yechimini topadi.

Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" deb nomlangan ma'ruzasida mahalla tizimiga juda katta ishonch bildirildi. Bugungi kunda fuqarolarning eng dolzarb muammolari o'z vaqtida va muvaffaqiyatli hal etilishida, ularning manfaatlari himoya qilinishida mahalla tizimining ta'siri va ahamiyati kuchayib borayotgani Prezidentimiz tomonidan e'tirof etildi.

Aqli raso har qanday inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu va intilishlar bilan yashaydi.

Muxtasar aytganda, hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

O'zaro mehr – oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim – yesirlarning boshini silash, to'y – tomosha, hashar va marakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor hamalla muhitida shakillangan va rivojlangan. "Halqimizga xos o'zini-o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida,

butun hayotidan chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz “Mahalla – ham ota, ham ona” degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz”¹⁶

Bugungi kunda Navoiy viloyatida barcha shahar va tuamnlarda 339 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, ular davlat hokimiyati boqaruvining quyi bo'g'ini sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Tarixdan ma'lumki, bir bolaga yetti qo'shni ota-ona yoki mahalla ota-ona degan naqlar bejiz aytilmagan. Dumak, har bir bolaning tarbiyalanishida mahallaning o'rni va ahamiyati juda katta.

2003 yilning “Obod mahalla yili” deb e'lon qilinishi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mahallaga berilayotgan katta e'tiborni, mahalla huquqlarining davlat darajasida kafolatlanishini, barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatining tayanchi va suyanchig'i etib olinishini va uni ko'rishda qudratli omilga aylanganligini yana bir bor ko'rsatdi. Prezidentimiz aytganlaridek: “Mahalladek noyob tizim haqida ortiqcha gapirib o'tirishga ehtiyoj yo'q... nega deganda, har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida odamlarning boshini qovushtirishda, turarjoylarda tartibintizomni mustahkamlashda, o'zini o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundan-kunga oshib borayotganini barchamiz ko'rib turibmiz”¹⁷.

Yosh avlodni xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yoshi jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim. Bunda albatta, mahallaning o'rni, oila hamda maktab o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ahamiyati kattadir.

16. И. Каримов “Юксак маънавият – энгилмас куч”, Тошкент. “Манавият” 2008 йил, 58-бет.

17. Ислон Каримов. Хаётимиз, тараққийтимизнинг ҳуқуқий асоси./ Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг ўн йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ, 2002 йил 5 декабрь. Т.: “Ўзбекистон”, 2002, 17- бет.

ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O'zbekiston», 1997y.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. Toshkent, 1997 y
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 y. 12 noyabr
4. "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar Majmuasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 y. 19 iyundagi Qarori
5. Mahalla: o'zini o'zi boshqarish huquqiy kafolati (qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami), T., 1999.
6. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'grisida"gi Qonuni. T.: 1999 y, 14-aprel.
7. Abdullayev J., Mirzaraimov B. Mahalla faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi mas-kani // Fuqarolik jamiyati . - 2008. - №4. - B.39-41.
8. Ahmedov A. Mahalla - fuqarolik jamiyati-ning muhim asosi // Demokratlashtirish va inson huquqlari. - 2013. - №1. - B.13-17.
9. Bilolxo'jayeva SH. Fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi - o'zini o'zi boshqarish organining muhim bo'g'ini // Fuqarolik jamiyati. - 2010. - №4. - B.26-30.
10. Bo'riyev O., Iskandarov SH. Mahalla-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maskani // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. - 2011. - №2. - B.24-28.
11. Demokratik tamoyillar ustuvorlik kasb etdi // Mahalla. - 2013.-18 dekabr.
12. Zamonaviy mahallani tashkil etish - fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti // Mahalla. - 2013. 18 dekabr.
13. Ismailova G. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorligining istiqbolli yo'nalishlariga doir // Fuqarolik jamiyati. - 2012. - №1. - B.19-21.
- Ismoilova G. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy maydonda // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. -2011. №1. - B.34-39.
14. Yigin raisi va uning maslahatchilari va-zifalariga munosib nomzodlarni saylashda fuqarolar faolligi ortmoqda // Mahalla. -2013. 11 dekabr.
15. Krsimov B., Yo'lchiyeva G, Alimova G. Mahalla-larda to'y-hashamlar va marosimlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent: O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamg'armasi, 2008. - 60 b.
- 16 Lutfullayeva N., Xonqulova N. Mahallada ijtimoiy tarbiya va uni barqarorlashtirish yo'llari. - Toshkent, 2011. - 68 b.2